



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/oiss>

SOCIO-CULTURAL PARADIGMS OF SOCIAL MOBILITY

Shokhsanam Shavkatovna Usmanova

independent researcher of Fergana State University
Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Social mobility, social group, change, development, progress, society, social life.

Received: 03.08.25

Accepted: 04.08.25

Published: 05.08.25

Abstract: This article reveals that socio-cultural paradigms of social mobility are necessary in socio-political conditions. This is a process associated with the change in the individual structural elements of the national characteristic with the change in the constancy of social existence. In this regard, it should be noted that the study of specific priorities for the implementation of reforms is of great importance.

IJTIMOIY HARAKATCHANLIKNING IJTIMOIY-MADANIY PARADIGMALARI

Shoxsanam Shavkatovna Usmonova

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ijtimoiy harakatchanlik, ijtimoiy guruh, o'zgarish, rivojlanish, taraqqiyot, jamiyat, ijtimoiy hayot.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy harakatchanlikning ijtimoiy-madaniy paradigmalarini ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda zarurat ekanligi ochib berilgan. Bu esa jamiyatning o'zgarishi bilan milliy xususiyatning individual tarkibiy elementlarini ijtimoiy borliqning doimiyligini o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Shu munosabat bilan ta'kidlash kerakki, islohotlarni amalga oshirish bo'yicha aniq ustuvor vazifalarni tadqiq etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ПАРАДИГМЫ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ

Шохсанам Шавкатовна Усманова

самостоятельный соискатель Ферганского государственного университета
Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Социальная мобильность, социальная группа, изменение, развитие, прогресс, общество, социальная жизнь.	Аннотация: В данной статье раскрывается необходимость социокультурных парадигм социальной мобильности в социально-политических условиях. Это процесс, связанный с изменением индивидуальных структурных элементов национального характера и постоянства социального бытия с изменением общества. В этой связи следует отметить, что важное значение имеет исследование конкретных приоритетных задач по реализации реформ.
--	---

Kirish

Globallashuv sharoitida jamiyat a'zolarining ijtimoiy faolligi muammosi dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy harakatchanlikka bog'liq bo'lib, uning turlari va shakllari hamda ko'lami juda katta hisoblanadi. Shuningdek, yosh avlod uchun ijtimoiy ko'tarilishlarning ochiqligi va ijtimoiy maqomni o'zgartirishdagi to'siqlarni bartaraf etilishi ilmiy jamoatchilikni qiziqtirib kelmoqda.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy harakatchanlik — insonlarning ijtimoiy tuzilmadagi mavqelarini o'zgartirish imkoniyati va bu harakatning ijtimoiy tuzumga ta'siri — dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy va siyosiy omillar bilan, balki ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, an'analar, ma'naviy-ma'rifiy holatlar bilan ham chambarchas bog'liq. Har qanday jamiyatda ijtimoiy harakatchanlik darajasi uning adolat, tenglik va rivojlanish tamoyillarini aks ettiradi. Ayniqsa, madaniy paradigmalar — ya'ni jamiyat a'zolarining qadriyat tizimi, intilishlari, tafakkur shakllari — bu harakatchanlikni yo'naltiruvchi asosiy omillardan biridir.

Ijtimoiy harakatchanlik zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur mavzuni o'rghanish bo'yicha rivojlanayotgan klassiklar va zamonaviy jamiyatlarda bir qator samarali tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Sababi ijtimoiy harakatchanlik milliy xarakterni shakllantirishdagi ahamiyati yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Bu jarayonda jamiyat a'zolarining ijtimoiy guruhlarni tashqaridan kirib kelishi uchun ochiq qiladigan meyorlar milliy xarakterga mos bo'lishi lozim. Shaxslararo munosabatlarda yuqori ijtimoiy mavqega erishish uchun keng imkoniyatlar paydo bo'lishi uchun ham milliy xarakterni ijtimoiy xarakatchanlikka moslashtirish zarurati ortib boradi.

Adabiyotlar tahlili

Ijtimoiy harakatchanlikni tushunishda P.Sorokin qarashlariga e'tibor berish lozim. Ya'ni uning fikricha, "Harakatchanlikni individlar va guruhlarning ijtimoiy makon va zamondagi

harakati jarayoni”[1.273.]deb hisoblangan. Ichki (yuqoriga qarab harakatlanishni o‘z-o‘zidan maqsad sifatida anglash) va harakatchanlikning tashqi omillariga (kerakli ijtimoiy maqomga erishish uchun jamiyat darajasida sharoitlar yaratish) e’tiborni jalg qilish, harakatchanlikning turlari, xususiyatlari tushunchasini shakllantiradi.

Fransiyada ijtimoiy harakatchanlik nazariyasining asoschilaridan biri A.Dyumanning “Aholining kamayishi va sivilizatsiya” asari P.Sorokinning “Ijtimoiy harakatchanlik” asaridan 37 yil oldin yozilgan bo‘lib, unga ko‘ra A.Dyumanning ijtimoiy kapillyarlik nazariyasida “Odamlarning boshlang‘ich ijtimoiy mavqeidan yuqori maqomga ko‘tarilishining tabiiy jarayonlari hamda ularning yashash sharoitlarining takomillashuvi bilan bog‘liq”[2.100.] ekanligini ta’kidlaydi. Keyinchalik bu harakatchanlik deb nomlana boshlangan. Jamiyatning o‘zi tomonidan belgilanadigan ijtimoiy kapillyarlik insonning jamiyatdagi o‘z funksiyalarini yaxshilash va turmush sharoitini farovonlashtirishga bo‘lgan universal istagini aks ettiradi. Shuningdek, T.Parsonsning tizimli tahlilida yanada rivojlantirilgan ijtimoiy harakatchanlikning ijtimoiy-madaniy paradigmalarini ko‘rish mumkin. Jumladan, “ijtimoiy makonda individlar harakatining xarakteri atrof-muhitning ta’siri - xulq-atvorni tartibga soluvchi funksiyalarini bajaradigan ijtimoiy institutlarning harakati bilan belgilanadi. Cheklash tizimi sifatida faoliyat yuritadigan institutlar turli xil rag‘batlarni yaratadilar. Aynan rag‘batlar shaxslarni ijtimoiy mavqeini o‘zgartirishga undaydi, institutlar esa bu o‘zgarishlarning yo‘nalishini belgilaydilar”[3.23.]. Bu jumla ijtimoiy makonni passiv fon emas, balki faol determinant omil sifatida talqin qiladi. Ya’ni, individning ijtimoiy makondagi harakati — ijtimoiy struktura, normativ me’yorlar va madaniy muhit bilan bog‘liq bo‘lgan tizimli ta’sirlar bilan belgilanadi. Bu holat P. Bourdieu’ning "habitus" tushunchasi va A. Giddensning "strukturatsiya nazariyasi" bilan hamohangdir — unda individ xatti-harakati ijtimoiy struktura bilan o‘zaro aloqador va uni takror ishlab chiqaruvchi holatda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy institutlar faqat ma’lumot yetkazuvchi yoki nazorat qiluvchi tuzilmalar emas, balki xulq-atvorni yo‘naltiruvchi va cheklovchi tizimlar sifatida faoliyat yuritadi. Masalan, ta’lim, oila, din, qonun, mehnat bozori kabi institutlar individga qaysi yo‘nalishda rivojlanish mumkinligi yoki mumkin emasligini ko‘rsatadi. Bu Talcott Parsons’ning funksionalizm nazariyasidagi "ijtimoiy tizimlar stabillikni saqlash uchun har bir a’zoning roli va harakatini tartibga soladi" degan fikriga mos keladi. Ushbu fikr ijtimoiy harakatchanlikni faqat individual intilish emas, balki ijtimoiy institutlar tomonidan shakllantiriladigan va boshqariladigan murakkab jarayon sifatida talqin qiladi. Bu jarayonda rag‘batlar va cheklovlar tizimi individlarning yo‘nalishini belgilaydi. Shuning uchun, ijtimoiy harakatchanlikni oshirish uchun institutlar faoliyatini inklyuziv va adolatli asosda qayta ko‘rib chiqish zarur.

Faylasuf olimlar S. Lipset va R. Bendiks “nafaqat ijtimoiy tuzilmada, balki iqtisodiyotda ham ildiz otganlik pozitsiyasidan o‘rganishni davom ettirib, ijtimoiy harakatlarni osonlashtiradigan jamiyat darajasida muayyan shart-sharoitlarni yaratish zarurligiga e’tibor qaratadilar. Ko‘pincha bu shartlar “o‘zgartirish” omillarining iqtisodiy dinamikasi bilan belgilanadi (texnologiyalar ishlab chiqarishning o‘rnini bosishi, ish o‘rinlarining yo‘qolishi, eski korxonalarning ishdan chiqishi tufayli malakaning pasayishi) va oliv ta’lim tizimining rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, ijtimoiy harakatchanlik B.Shafer (Germaniya), J.Marso (Fransiya) va L.Dyuberman (AQSH) asarlariga ko‘ra jamiyat turi, uning ijtimoiy tuzilishining tabiat, sinfiy farqlar va individlar sohasidagi imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlagan”[4.6.].

Ingliz faylasufi D.Glass o‘z tadqiqotida ijtimoiy harakatchanlik omillarini faoliyatning obro‘sni, ta’lim va yuqoriga harakatlanish istagini o‘rganishga bag‘ishlaydi. U, ayniqsa, “o‘rta tabaqa” guruhlariga shaxslarni jalg qilish jarayonlari bilan qiziqadi. Harakatlanishning empirik tadqiqotlari natijasida D. Glass fikricha, “Yuqori ijtimoiy mavqelarni egallagan shaxslar, birinchi navbatda, jismoniy mehnat bilan shug‘ullanadigan quyi qatlamdagi shaxslarga qaraganda ijtimoiy taraqqiyot uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega ekanligini aniqlaydi”[5.18.]. Bu fikrning markaziy nuqtasi — ijtimoiy tabaqlanish tamoyilidir. Ijtimoiy stratifikatsiya nazariyalariga ko‘ra (masalan, M. Weber yoki P. Bourdieu asarlarida), jamiyatda ijtimoiy mavqe (status) iqtisodiy, madaniy va siyosiy resurslar bilan belgilanadi. Yuqori mavqedagi shaxslar — ya’ni kapital, bilim, ijtimoiy tarmoqlar (netvorklar) kabi resurslarga ega bo‘lganlar — o‘z farzandlariga ham ustun start imkoniyatlari yaratib beradi. Bu esa meros qilib olinadigan afzalliklar tizimini shakllantiradi. Turli sotsiologik tadqiqotlar, jumladan, OECD, UNESCO va UNDP hisobotlarida ham yuqori ijtimoiy statusdagi oilalarning bolalari yuqori ta’lim darajasiga, yuqori ish haqi va ijtimoiy barqarorlikka erishish ehtimoli yuqori ekanligi qayd etilgan. Bu esa ushbu fikrning empirik asosga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Yoki rus faylasufi A.V Karavay ham o‘z asarlarida shunday xulosaga keladi, ya’ni “Daromad iyerarxiyasi zinapoyasida yuqoriga ko‘tarilish uchun jins, yosh, sog‘liq holati, turarjoy turi va ota-onalarning ma’lumoti kabi yuqoriga ko‘tarilish omillarining”[6.34] roli muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu fikr ijtimoiy harakatchanlik — ya’ni shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy pog‘onalarda yuqorilash (ko‘proq daromad, obro‘, resurslarga kirish) imkoniyatlari qanday strukturaviy omillarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv strukturaviy determinizmga asoslanib, individ muvaffaqiyati shaxsiy qobiliyatlardan ko‘ra, ko‘proq ijtimoiy omillar bilan belgilanadi degan qarashni ilgari suradi. Yosh — daromad ko‘tarilishining dinamik indikatoridir. Yosh o‘tgan sayin tajriba va malaka ortadi, bu esa ko‘proq daromad olish imkonini oshiradi. Biroq, juda yoshlar va keksa yoshdagilar ish bozorida diskriminatsiyaga ham uchrashi mumkin.

Sog‘liq holati esa bevosita iqtisodiy imkoniyatlarga ta’sir qiladi. Yaxshi sog‘liq mehnatga layoqatlilik, barqaror ish o‘rinlari va yuqori samaradorlik bilan bog‘liq. Nogironlik, surunkali kasalliklar esa imkoniyatlarni sezilarli darajada cheklaydi. Sog‘liqning ijtimoiy determinantlari — oziq-ovqat, yashash muhiti, sog‘liqni saqlash tizimi — bu yerda muhim o‘rin tutadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan omillar daromad iyerarxiyasida yuqorilash jarayonini strukturaviy jihatdan belgilovchi kuchli faktorlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxsning qobiliyat va mehnatidan tashqari, uning jinsiga, yoshlik davridagi sog‘lig‘iga, yashash joyiga va oilaviy foniga qarab ijtimoiy pog‘onalar o‘rtasida harakatlanish imkoniyati belgilanadi. Bu esa ijtimoiy tenglik vaadolat tamoyillarini ta’minlash uchun davlat siyosatida maqsadli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ijtimoiy harakatchanlikning ijtimoiy-madaniy paradigmalari madaniy harakatchanlik nazariyasi nuqtai nazaridan raqobatbardosh istiqboli rivojlanishni taklif qiladi, bu nazariyaga ko‘ra, qimmatbaho madaniy resurslar na faqat yuqori sinflar tomonidan egalik qilinadi. Lekin boshqa sinflar vakillari ham bunday resurslardan foydalanishlari mumkin. Shunga ko‘ra, kam ta’minlangan oilalar farzandlari madaniy resurslardan ijtimoiy harakatchanlikni oshirish uchun vosita sifatida foydalanishlari mumkin. Yana bir yondashuv - madaniy harakatchanlikni ijtimoiy harakatchanlikning natijasi yoki moslashuvi sifatida ko‘rishdir. Asosiy g‘oya shundan iboratki, odamlar o‘z hayotlarida turli xil ijtimoiylashuv kontekstlariga duch kelishadi va ular bilan shug‘ullanishadi. Ta’lim tizimidagi madaniy ijtimoiylashuv oilalardagi madaniy ijtimoiylashuvga mutlaqo mos kelmaydi. Ijtimoiy harakatchanlik shunday kontekstlarning yig‘indisini o‘z ichiga oladiki, natijada ijtimoiy kelib chiqishining ahamiyati odamlarning hayotida rivojlanishi bilan kamayadi va ijtimoiy maqsad o‘zining madaniy amaliyotiga ta’siri bo‘yicha ijtimoiy kelib chiqishidan ustun turadi.

Tahlil va natijalar

Rivojlanib borayotgan dunyoda bilimning jamiyat rivojlanishining asosiy resursiga aylanishini ko‘rsatadigan yangi tendensiyalar hukmronlik qilmoqda. Iqtisodiy rivojlanish omillari o‘zgarmoqda; ular orasida innovatsiya va yangi bilimlarni tarqatish omillari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bilim moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish uchun turtki bo‘lib, hayot darajasi va sifatini, sog‘liqni saqlashni, jamiyatning jamiyat hayotiyligini belgilab bermoqda. Bilimga asoslangan innovatsion jamiyat iqtisodiyoti yuqori malakali mutaxassislar ulushini oshirishni, fuqarolarning uzluksiz ta’lim olishi uchun shart-sharoitlarni, ularning

ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashishini ta’minlaydigan innovatsion ta’lim tizimlarini talab qiladi.

Zamonaviy iqtisodiyot bilimlar iqtisodiyot doirasida bilim yuqori texnologiyali mahsulotlarga, yuqori malakali xizmatlarga aylanmoqda. Bilimlarni uzatish, shaxsni ijtimoiylashtirish, uning jamiyatga integratsiyalashuvi zarurati ta’lim tizimi tomonidan ta’minlanadi. Jamiyatda ijtimoiy institut sifatida u bilimdan ijtimoiy tajribani uzatish vositasi sifatida foydalaniladi.

Bilimni talab qiluvchi mahsulot va xizmatlar yaratish asosida raqobatning globallashuvi zamonaviy ta’limning rolini kuchaytiradi va strategiyasini belgilaydi. Rivojlangan mamlakatlarda an’anaviy sanoat iqtisodiyoti axborot (bilim) iqtisodiyotiga aylanar ekan, eski ta’lim modellari davom etayotgan o‘zgarishlarga mos kelmay qoldi, ular global muammolarni hal etishda samarasizlik va hatto nochorlikni ko‘rsatmoqda. Bu mavjud ta’lim va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi o‘rtasidagi tafovutga olib keladi. Ta’lim modellari faoliyatning barcha sohalarida innovatsiyalarning rivojlanishiga mos kelishi kerak.

Zamonaviy dunyoda ta’lim strategik istiqbolda raqobatbardoshlik omiliga aylanadi. Hukumatlar va xalqaro tashkilotlar ham ta’lim sifatiga e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim – mamlakatning intellektual salohiyati shakllanadigan muhitdir. Kadrlar raqobatbardoshligi qanchalik yuqori bo‘lsa, mamlakatimizda mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlardan shunchalik samarali foydalanish, shu paytgacha foydalanilmagan kuch va imkoniyatlarni safarbar qilish. Aynan ta’lim sifati talabalar tomonidan olingan bilimlarning hajmi va o‘zlashtirilishi darajasini belgilaydi va ularning shaxsiy va ijtimoiy maqsadlariga erishish ham bunga bog‘liq. Har bir mamlakatning siyosiy kun tartibi ta’lim natijalarining sifati yuqori bo‘lishini va talabalar jamiyatda konstruktiv rol o‘ynashga yordam beradigan ko‘nikma va qadriyatlarni egallahshlarini ta’minlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy harakatchanlik nafaqat iqtisodiy resurslar yoki siyosiy imkoniyatlar bilan belgilanadi, balki u jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy paradigmalar — ya’ni qadriyatlar tizimi, an’anaviy dunyoqarash va madaniy meros bilan bevosita bog‘liqdir. Har bir jamiyatda bu paradigmalar ijtimoiy harakatchanlik uchun yo‘l ochuvchi yoki aksincha, to‘sinq bo‘luvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar, ayollar, va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun madaniy tafakkurning inklyuzivlik darajasi ularning ijtimoiy rivojlanish yo‘lini belgilaydi.

Shu bois, O‘zbekistonda kechayotgan modernizatsiya va ma’naviy yangilanish jarayonlarida ijtimoiy harakatchanlikni qo‘llab-quvvatlaydigan madaniy muhitni shakllantirish

dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, barqaror taraqqiyot, ijtimoiyadolat va ma’naviy uyg‘onish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. - М.: Прогресс, 1992.
2. Носкова А.В., Кузьмина Е.И. Социальная мобильность в трудах ведущих социологов Франции XX в. // Социологические исследования. - 2019.
3. Парсонс Т. Система современных обществ / пер. с англ. Л. А. Седова и А.Д. Ковалева. - М.: Аспект Пресс, 1998.
4. Шкаратан О.И. Ожидания и реальность. Социальная мобильность в контексте проблемы равенства шансов // Общественные науки и современность. - 2011. - № 1.
5. Батуренко С. А. Теории социальной мобильности в истории социологической мысли // 2014. - № 2.
6. Каравай А.В. Факторы доходной стратификации российского общества: роль структурных барьеров на пути восходящей доходной мобильности. Ч. 2 // Социологическая наука и социальная практика. - 2018. - № 2.